

QO'QON DAVLAT
PEDAGOGIKA INSTITUTI
ILMIY XABARLARI
(2025-yil 3-son)



IJTIMOIIY FANLAR
SOCIAL STUDIES

G'ARBIY TURK XOQONLIGINING CHOCH VOHASIDAGI BOSHQARUV TIZIMI

Muxamedov Yakubdjan Kadirovich

Doktor of philosophy in history (PhD)

senior teacher National university of Uzbekistan

mukhamedov-2017@mail.ru

Annotatsiya Mazkur maqolada G'arbiy Turk xoqonligining mahalliy hukmdorliklar bilan o'zaro aloqalari yozma va arxeologik manbalar asosida yoritilgan bo'lib, xoqonlikning mahalliy boshqaruv tizimidagi o'zgarishlariga doir ma'lumotlar xorijlik va mahalliy olimlarning xulosalari asosda ilmiy taxlil qilingan.

Kalit so'zlar choch, sug'd eftalit, turk, ashin, sosoilyar, elchilik, xoqon, yabg'u, tegin, tudun, shad, chjaovu, chabish, xotunkat, jabg'ukat.

THE ADMINISTRATIVE SYSTEM OF THE WESTERN TURKIC KHAGANATE IN THE CHOCH VALLEY

Abstract: This article highlights the interactions between the Western Turkic Khaganate and local kingdoms, based on written and archaeological sources. The article scientifically analyzes the changes in the local administrative system of the khaganate based on the conclusions of both foreign and local scholars.

Keywords: Choch, Sogdian, Eftalite, Turk, Ashina, Sasonids, Embassy, Khagan, Yabghu, Tegin, Tudun, Shad, Chjaovu, Chabish, Khotunkat, Jabgukhat.

АДМИНИСТРАТИВНАЯ СИСТЕМА ЗАПАДНОГО ТУРКЕСТАНСКОГО ХАГАНАТА В ЧОЧСКОЙ ДОЛИНЕ

Аннотация: В данной статье рассматриваются взаимосвязи Западного Туркестанского Хаганата с местными царствами на основе письменных и археологических источников. Научный анализ изменений в местной административной системе хаганата проводится на основе выводов как зарубежных, так и местных ученых.

Ключевые слова: Чоч, Согдийцы, Эфталиты, Турки, Ашина, Сосониды, Посольство, Хаган, Ябгу, Тегин, Тудун, Шад, Чжаову, Чабиш, Хотункат, Джабгукат.

Kirish. Turk xoqonligining bir qismi sifatida G'arbiy Turk xoqonligi asosan ikki daryo oralig'i (Amudaryo va Sirdaryo) hududlarni o'z nazorati ostida boshqarib kelgan. O'z

boshqaruv tizimini olib borishda ma‘lum bir isloxotlarni amalga oshirib kelgan. Mazkur masalani o‘rganishda xitoy solnomalarida keltirilgan ma‘lumotlar muxim ahamiyatga ega xisoblanadi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. G‘arbiy Turk xoqonligi tarkibida bo‘lgan Chochda aynan qaysi sulolalar hukmronlik qilganligi ularning etnik jihatdan kelib chiqishi qaysi etnik guruxlarga mansubligi borasidagi qarshlar mavjud. Mazkur masala borasida arxeolog olim Yu.F. Buryakov arxeologik va yozma manba ma‘lumotlar asosida, bu davrda Choch vohasining ijtimoiy-siyosiy hayoti va ma‘muriy markazlarini aniqlab, xoqonlik davrida Ashina sulolasi boshqarganligini ta‘kidlab o‘tsa[1], E.V. Rtveladze numizmatik materiallarga asoslanib, vohada bir necha boshqaruvchi sulolalar mavjud bo‘lganligini ilgari surgan[2] G‘. Boboyorov esa asosan xitoy va qisman sug‘diy tilli manbalarga hamda numizmatik materiallardagi ma‘lumotlarga tayangan holda VII – VIII asrlarda vohada G‘arbiy Turk xoqonligiga aloqador bo‘lgan Choch Teginlari (605 – 750) va Choch Tudunlari (640 – 750) kabi turkiy sulolalar boshqaruvda bo‘lganligiga e‘tibor qaratadi[3]. M. Xatamova bu masalani yoritishda asosiy e‘tiborini Turk xoqonligidagi shaharsozlik masalasini tadqiq etishga qaratgan holda, Choch vohasining siyosiy-ma‘muriy markazlari va ularning xoqonlikka aloqadorlik darajasini tahlil qilib bergan[4].

Choch boshqaruvida nima sababdan aynan shunday boshqaruvni joriy qilganligi masalasi o‘z izohini talab qiladi. Buning uchun esa “xoqonlik o‘z vassallarini boshqarar ekan aynan qanday omillardan kelib joylarda turlicha usul va vositalarni joriy qilgan” degan mazmundagi savolga to‘xtalib o‘tish kerak bo‘ladi. Tadqiqotchilarning fikricha, xoqonlik asosan quyidagicha omillardan kelib chiqib o‘z vassallariga nisbatan boshqaruv usullarini joriy qilgan[5]. Voha hukmdorliklarning geografik joylashuvi va ularning strategik ahamiyatiga ko‘ra isloxotlar olib borgan.

G‘arbiy Turk xoqonligi qo‘l ostidagi hukmdorliklarning geografik joylashuvida vohaning tabiiy resurslarga boy yoki aksincha kam ekanligidan kelib chiqilgan bo‘lib, Sharqiy Turkistondagi nisbatan tor vodiylarda joylashgan hukmdorliklar keng yaylovlarga ega bo‘lmay, ko‘p sonli aholi yashashi uchun unchalik mos emas edi. Xoqonlik bu yerlarga ma‘lum bir aholi guruhini ko‘chirib kelishi yoki qo‘shin joylashtirish imkoniyati oz ekanligi bilan baxolash mumkin. Shunga o‘xshash holat Amudaryo – Sirdaryo oralig‘idagi ayrim voha hukmdorliklarida ham ko‘zga tashlanadi. G‘arbiy Turk xoqonligi Xorazm vohasini boshqaruvida mahalliy sulola – Afrig‘iylar Eftalitlar davlati davrida bo‘lgani kabi, G‘arbiy xoqonlik davrida ham o‘z boshqaruvini saqlab qolib, xoqonlikka asosan o‘lpon to‘lab turish bilan cheklanib, ayrim unvon va epitetlarni hisobga olmaganda turkiy davlatchilik tizimi u darajada ta‘sir ko‘rsatmaganligini Buni, shunday izohlash mumkin. Birinchidan, Xorazm vohasi xoqonlikning markaziy hududi – Yettisuvdan uzoqda joylashganligi[6], ikkinchi tomondan esa bu davrda Xorazmga xavf soladigan biror yirik siyosiy kuchning yo‘qligi bilan bog‘liq edi. To‘g‘ri, Xorazm vohasi janubi-g‘arbiy yo‘nalishda Sosoniylar Eroni hududiga

nisbatan yaqin edi, biroq bu hududdagi Marv, Dehiston, Gurgon kabi voha hukmdorliklari ham xoqonlikka bo‘ysunardi.

Tahlil va natijalar. Choch Teginlari kabi G‘arbiy Turk xoqonligi bilan bog‘liq ravishda o‘rtaga chiqqan sulolalardan biri bo‘lmish Toxoriston Yabg‘ulari[7] misolida taxlil qilsak, bu yer xoqonlikning janubi-g‘arbiy hududlaridagi eng chekka hukmdorliklardan biri bo‘lib, Sosoniylar Eroniga yaqin hududda joylashganligini ta’kidlab o‘tish mumkin. Shu o‘rinda 620-yillarda bu yerda G‘arbiy Turk xoqonligining bir tarmog‘i – Yabg‘ular sulolasi boshqaruvda bo‘lib, ular bu yerdagi o‘nlab katta-kichik hukmdorliklarni xoqonlik nomidan nazoratda tutib turganligini, Xoqonlik qo‘shinlari esa, Toxoristondan turib, Xuroson va Kobulistonning ichki hududlariga harbiy yurishlar uyushtirib, ayrim paytlarda bu hududga bo‘lgan da’volar xoqonlik va Sosoniylar orasida tortishuvlarga sabab bo‘lgan[8] Demak, Toxoriston xoqonlik uchun strategik jihatdan katta ahamiyatga ega bo‘lgan. Shu tufayli bu yerda xoqonlik tomonidan bevosita boshqaruv – mahalliy sulola o‘rniga Ashina xonadoni vakillarini tayinlash amaliyoti qo‘llangan bo‘lib, bu boshqaruv to 750- yillargacha saqlanib qolingani edi.

Garchi geografik joylashuviga ko‘ra strategik jihatdan unchalik katta o‘rin tutmasa-da, Farg‘onada ham boshqaruvda bevosita Ashina sulolasi vakillari qo‘liga o‘tgan bo‘lib, 630-yillarda Farg‘onadagi mahalliy sulola vakilining o‘ldirilishi natijasida[9] bu yerda Ashina sulolasiga mansub shahzodalar boshqaruvni qo‘lga olgan va bu sulola ham 750-yillargacha o‘z faoliyatini davom ettirgan bo‘lib, Ushbu sulola vakillari xoqonlik nomidan tanga zarb qilib, ularda qadimgi turk-run va sug‘diy yozuvda “xoqon” unvonini aks ettiruvchi yozuv va tamg‘asi o‘rin olgan[10]. Farg‘onada xoqonlik tomonidan bevosita boshqaruvning yo‘lga qo‘yilishini tadqiqotchilar bu yerning keng yaylovlarga ega bo‘lganligi bilan izohlashadi. Demak, Farg‘ona vodiysining tabiiy geografik holati, ya’ni xoqonlikning boshqaruvchi toifasi va qo‘shinlarining kelib joylashuvi, umuman olganda, aholining yangi migratsiyasi uchun mosligi bu yerda shunday usul qo‘llanilishiga olib kelgan. Ma’lumki, vodiy aholisining sezilarli bir qismini tashkil qilgan turkiylarning salmog‘i Turk xoqonligi davrida yanada ortib borgan.

Shu jihatdan olganda, Choch vohasi va Farg‘ona vodiysi o‘zaro o‘xshash ekanligini ko‘rish mumkin. Choch vohasining tevarak atrof hududlari keng yaylovlarga ega bo‘lishi bilan birgalikda dehqonchilik va chorvachilik uchun qulay bo‘lib, xoqonlik davrida bu yerga qo‘shni Yettisuv va Sirdaryoning o‘rta havzalaridan sezilarli miqdorda aholi kelib joylashadi. Shu bilan bog‘liq ravishda bu yerning qadimdan mahalliy aholining sezilarli qismini tashkil qilgan turkiy aholi salmog‘ining salmog‘ini ortishiga olib kelgan omil sifatida talqin qilishimiz mumkin. Buni vohada o‘nlab turkiy toponimlarning paydo bo‘lishi ham tasdiqlaydi[11]. Qisqasi, Toxoriston va Farg‘onaga o‘xshab Chochda ham bevosita boshqaruvning o‘rnatilishi – bu yerning tabiiy geografik joylashuvi bilan bog‘liq bo‘lgan, deb hisoblash mumkin.

Chochning boshqaruv tizimida asosiy rol o‘ynagan sulola vakillari xaqida to‘xtalib o‘tish lozim. Xususan, bir qator tadqiqotchilarning fikricha, «Tan shu» yilnomasida keltirilgan Choch bilan bog‘liq ma’lumotlarda 640 – 750 yillar orasida vohani boshqargan 4 nafar Choch hukmdorlari *tudun* unvoni ostida uchrashi[12], A-14 raqamli sug‘diy hujjatda (720 y.y.) *tōwn*

unvonli shaxs Choch bilan aloqali siyosiy masalalarni hal qiluvchi amaldor sifatida tilga olinishi[13], Tabariy asarida «*Tudun malik ash-Shosh*» («Shosh hukmdori Tudun») iboralari qayd etilishi[14], Beruniy esa «tudun» so‘zini Shoshning qadim hukmdorlari unvoni tariqasida ko‘rsatishi[15], aynan *Teginlar* sulolasi bilan deyarli bir vaqtda vohada *Tudunlar* sulolasi[16] mavjud bo‘lganini tasdiqlaydi. VII–VIII asrlarga taalluqli tangalarda ham *tōwn c‘cynk xwβ* («Choch hukmdori Tudun») iborasining uchrashining o‘ziyiq, bu fikrni yanada tasdiqlashi bilan birga xitoy yilnomalarida Choch Teginlari to‘g‘ridan-to‘g‘ri *Shi-go van* («Choch davlati hukmdori»), Tudunlar esa ba‘zan *Shi-go Fu-van* («Choch davlatining hukmdor muovini») shaklida tilga olinishi[17]ni ko‘rishimiz mumkin. Agar ushbu manbalarda keltirilgan ma‘lumotlarni ilmiy jixatdan taxlil qilsak, birinchisining bosh sulola, boshqasining esa ikkinchi darajali sulola bo‘lganligini e‘tirof etish mumkin[18] Shunga qaramay, 640–750- yillar mobaynida Choch bilan bog‘liq siyosiy voqealarda teginlar emas, hal qiluvchi shaxs sifatida doimo tudunlar ishtiroki, ularning Choch hokimiyati jilovini o‘z qo‘llariga olganini ko‘rsatadi. Bu esa xoqonlarning vassallar nazoratiga bevosita tudunlarni mas‘ul qilganliklari bilan bog‘liq bo‘lganligini ta‘kidlab o‘tish mumkin.

Shu o‘rinda G‘arbiy Turk xoqonligi Choch vohasi boshqaruviga shahzoda – teginlarni tayinlab, bu yerning boshqaruvini bevosita o‘z qo‘liga olgan bo‘lsa, unda bu yerga tudun jo‘natishga zarurat bormidi, degan savol tug‘ilishi mumkin. Bu yerning boshqaruviga mas‘ul qilingan shahzodalar bu yerning boshqaruvchi sulolasi sifatida Xitoyga o‘z elchilarini yuborishgani va tanga-pul zarb qildirga boshlashganligi bilan shuningdek, ularning o‘z ichki boshqaruvida ma‘lum ma‘nodagi mustaqil bo‘lganligini ta‘kidlab o‘tish mumkin, shu o‘rinda G‘. Boboyorovning fikricha, Choch Teginlari xoqonlik nazdida boshqa vassal hukmdorliklardan uncha farq qilmaydigan mahalliy hukmdorlarga aylanib ulguraganligini, xoqonlar keyinchalik esa, ushbu sulola vakillariga *eltabar* unvoni berish bilan birga, ularni o‘z nazoratlarida tutib turish maqsadida *tudun* unvonli o‘z noiblarini yuborganligini aytib o‘tadi. Shu o‘rinda tadqiqotchi o‘z fikrining tasdig‘i sifatida Choch Teginlariga taalluqli bo‘lgan tangalardagi *c‘cynk γwβw tk’ ryttyr* («Choch hukmdori Tegin?-Eltabar») jumllarining uchrashini keltirib o‘tish orqali asoslab bergan[19]. Yuqoridagi ushbu fikrni ilmiy jihatdan tahlil qiladigan bo‘lsak, xoqonlik davrida mahalliy boshqaruvda teginlardan ko‘ra tudunlar mavqeining oshishiga keyinchalik o‘z sulolasiga asos solganligini nafaqat yozma manbalardagi ma‘lumotlarda, balki numizmatik materiallardagi ma‘lumotlarni keltirib o‘tish mumkin.

Demak, Choch vohasida ayni vaqtning o‘zida alohida-alohida *Teginlar* va *Tudunlar* kabi sulolalar mavjud bo‘lishi, vohada qo‘shhokimiyatchilik bo‘lganidan darak bermaydimi mazmunidagi savol tug‘ilsa-da, biroq, yozma manbalarga ilmiy jixatdan nazar tashlansa, shuningdek, masalaga Turk xoqonligining o‘z vassallarini boshqarishda qo‘llagan usul va vositalar mohiyati jihatidan yondashilsa, bu holatni qo‘shhokimiyatchilik bilan emas, aksincha, xoqonlik boshqaruvining o‘ziga xos xususiyatlari bilan bog‘liq ekanligiga guvoh bo‘lish mumkin. Darvoqe, *tudun* unvoni Turk xoqonligining boshqaruvchi xonadoniga bevosita aloqador bo‘lmagan, asosan bo‘ysundirilgan o‘lkalarning hukmdorlari ustidan nazorat qilish va

u yerlardagi soliq yig‘ishga ma’sul qilingan vakillarga nisbatan ishlatilgan[20]. Bu esa *tegin* – Choch hukmdori, *tudun* esa uni nazorat qilish uchun xoqonlik tomonidan yuborilgan vakil – noib, deb hisoblashga imkon beradi. G‘arbiy Turk xoqonligi nafaqat Chochda, balki o‘z qo‘l ostidagi o‘nlab voha hukmdorliklarini boshqarishda ularning mavjud bo‘lgan mahalliy sulolalarini saqlab qolgan holda, ularning bir qismiga o‘z xonadoni vakillarini tayinlashi barobarida ular ustidan nazoratchi vakillar – *Tudunlik* deb nomlasa bo‘ladigan noiblik joriy qilgan bo‘lib, ular amaldagi hokimiyat jilovini qo‘lga olgan, “Choch Teginlari”, “Choch hukmdorlari” deb nomlangan vohaning asosiy boshqaruvchi sulolalari va vohadagi yana boshqa kichik hukmdorliklarni o‘z nazoratiga olganligini guvohi bo‘lish mumkin. Bunda ularning to‘g‘ridan-to‘g‘ri xoqonlar nomidan ish yuritishlari, ya’ni xoqonlik noiblari bo‘lishlari asosiy o‘rin tutgan.

Xulosa G‘arbiy Turk xoqonligi Choch vohasini boshqarishda boshqa voha hukmdorliklarida bo‘lgani kabi syuzeren – vassal munosabatlarida bir qator usul va vositalarni joriy qilgan. Choch vohasida Farg‘ona, Toxoriston va Kobulistondagiga o‘xshab bunday munosabatlar bevosita, ya’ni to‘g‘ridan-to‘g‘ri amalga oshirilgan bo‘lib, buni voha boshqaruvidan kelib chiqishi Ashina xonadoniga taqaluvchi Choch Teginlari (605-750) turganligi tasdiqlaydi. Shuningdek, xoqonlikning noiblari – tudunlar ham Chochda bevosita boshqaruvni yo‘lga qo‘yilishi bilan bog‘liq masalalardan biri bo‘lib, bu kabi masalalar to‘laqonli o‘z tasdig‘ini topishi uchun yanada ko‘plab ilmiy izlanishlar olib borilishi zarurdir.

ADABIYOTLAR

1. Буряков Ю. К истории раннесредневекового Чача // O'zbekiston tarixi. - Toshkent., 2002. - №3. - С. 12.
2. Ртвеладзе Э.В. Нумизматические материалы к истории раннесредневекового Чача // ОНУ. 1982. № 8. С. 31–38; Ртвеладзе Э.В. Древние и раннесредневековые монеты историко-культурных областей Узбекистана. Т. 1. Тошкент, 2002. С. 242 – 256.
3. Бобоёров Г. Чоч тарихидан лавхалар. Тошкент. Yangi nashr, 2010.- б. 25–64.
4. Хатамова М.М Турк хоқонларининг Чочдаги қароргоҳлари: Жабғукат ва Хотункат // O'zbekiston tarixi. - Тошкент., 2009. - №2. Б.3-13.
5. Skaff K. J. Western Turk Rule of Turkestan's Oases in the Sixth through Eighth Centuries // TURKS– Ankara, 2002. Vol. 2. P. 364–372; Бобоёров Г. Ғарбий Турк хоқонлигининг давлат тузуми: Тарах фанлари док.... дисс-я. Т.: УзР ФА ШИ, 2012. 36-38-бетлар.
6. Бобоёров Г. Турк хоқонлиги даврида Хоразм // Хоразм тарихи замонавий тадқиқотларда. Тошкент-Урганч, 2019. 48-50-бетлар.
7. Джуманиязова Ф. Илк ўрта асрларда Тохаристон ва Кобул водийсида туркий сулолалар.: Тарих фан. бўйича фалсафа доктори (PhD) дисс. ... автореф. Тошкент, 2018. 15-17-бетлар.

8. Бобоёров Ғ. Турк хоқонлиги даврида Тохаристон // Мозийдан садо. №4. 10–11-бетлар.
9. Бернштам А.Н. Древняя Фергана (Научно-популярный очерк). Ташкент, 1951. С. 22-26; Смирнова О. И. Очерки из истории Согда. М.: Наука, 1970; Асқаров А. Ўзбек халқининг этногенези ва этник тарихи. Тошкент: Университет, 2007. 34-37-бетлар; Матбобоев Б.Х. Қадимги Фарғонанинг илк ўрта асрлар даври маданияти (V–VIII асрлар археологик манбаларининг тарихий таҳлили асосида): Тарих фанлари док. ... дисс. автореф. Самарқанд, 2009; Анарбаев А. Ахсикент – столица древней Ферганы. Ташкент, 2013; Баратова Л.С. Некоторые аспекты товарно-денежных отношений Ферганы древности и раннем средневековье // Марғилон шаҳрининг жаҳон цивилизatsiysi тарихидаги тутган ўрни. Марғилон шаҳрининг 2000 йиллигига бағишланган халқаро илмий конференция материаллари. Тошкент, 2007. С. 43-50.
10. Babayar G. Fergane bölgesinde bulunan Türk-Runik yazılı Köktürk sikkeleri üzerine // Düünden Bugüne İpek Yolu: Beklentiler ve Gerçekler. İstanbul, 2008. S. 135-146.
11. Хатамова М. Ўзбекистон шаҳарлари VI–VIII асрларда: Чоч воҳаси мисолида. Тошкент. Yangi nashr. 2017.- 205. Б.
12. Бичурин Н.Я. (Иакинф). Собрания сведений о народах, обитавших в Средней Азии в древние времена. Т. 2. ... С. 313–314; Бобоёров Ғ. Чоч тарихидан лавҳалар ... 101, 114-116-бетлар; Хатамова М. Турк хоқонларининг Чочдаги қароргоҳлари: Жабғукат ва Хотункат ... 3–13-бетлар; Хатамова М. Турк хоқонлиги шаҳарлари (VI – VIII асрлар): ... 23-бет.
13. Лившиц В. А. Согдийский посол в Чаче // СЭ. 1960. № 2. С. 82–83. Babayar G. Fergane bölgesinde bulunan Türk-Runik yazılı Köktürk sikkeleri üzerine ... S. 135-146.
14. «История» ат-Табари: Избранные отрывки / Пер. с арабск. В.И. Беляева; Доп. к пер. О. Г. Болшакова А Б. Халидова. Ташкент, 1987. С. 269.
15. Бируни Абу Рейхан. Памятники минувших поколений / Пер. с араб. и примечания М.А. Сале / Бируни. Избранные произведения. Т. 1. Ташкент, 1957. С. 111.
16. К монетам Чачских правителей тегингов // ИМКУ. Вып. 35. Самарканд, 2006. С. 194-198.
17. Chavannes E. Documents sur les... P. 142; Chavannes E. Notes additionnelles sur les Tou-kie (Turcs) occidentaux // T'oung Pao. Vol. II. Leide, 1904. P. 67, 69–70, 74, 92.
18. Бабаяров Г. Древнетюркские монеты Чачского оазиса VI - VIII в.в – С. 56-60.
19. Бабаяров Г. Древнетюркские монеты Чачского оазиса ... С. 48, 49.
20. Толстов С.П. Древний Хорезм: Опыт историкоархеологического исследования. М.: Издание МГУ, 1948. С. 260.